

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

OLIY TA'LIM MUASSASALARI MA'NAVIY-MA'RIFIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI

Egamberdiyev Javlonbek Saynabi o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, tadqiqotchi.

e-mail: Egamberdiyev_j@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-7346-4853>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari tadqiq etiladi. Muallif globallashuv jarayonining ta'lim tizimiga ta'sirini, Sharq va G'arb falsafiy an'alarida ma'naviyat hamda ma'rifat tushunchalarining talqini, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni tahlil qiladi. Tadqiqotda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning tarbiyaviy, integratsiyaviy, himoya va ijodiy-rivojlantiruvchi funksiyalari ko'rib chiqiladi. Maqolada oliy ta'lim muassasasi endilikda faqat kasbiy bilim beruvchi maskan emas, balki jahon miqyosidagi g'oyaviy oqimlarning kesishuv nuqtasiga aylanganligi asoslanadi. Muallif globallashuv jarayonini bir tomonlama, faqat ijobiy yoki faqat salbiy hodisa sifatida baholash ilmiy jihatdan asossiz ekanligini ko'rsatadi va globalizatsiya tamoyiliga asoslangan yondashuvni taklif etadi. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning institutsional tayyorgarlik darajasi bilan uning natijadorligi o'rtasidagi bog'liqlik alohida tahlil qilinadi. Tadqiqot oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat, oliy ta'lim, globallashuv, globalizatsiya, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, mafkuraviy immunitet, ijtimoiy falsafa.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Эгамбердиев Жавлонбек Сайнаби угли

Шахрисабзский государственный педагогический институт, исследователь.

Аннотация.

В статье исследуются социально-философские основы совершенствования духовно-просветительской деятельности в высших образовательных учреждениях. Автор анализирует влияние процессов глобализации на систему образования, интерпретацию понятий духовности и просвещения в восточной и западной философских традициях, а также диалектическую взаимосвязь между национальными и общечеловеческими ценностями. Рассматриваются воспитательная, интегративная, защитная и творческо-развивающая функции духовно-просветительской деятельности. Обосновывается положение о том, что современное высшее образовательное учреждение является не только центром профессиональной подготовки, но и пространством пересечения различных мировых идейных течений. Автор показывает научную несостоятельность односторонней оценки глобализации исключительно как положительного или отрицательного явления и предлагает подход, основанный на принципе глокализации. Особое внимание уделяется взаимосвязи между уровнем институциональной готовности к осуществлению духовно-просветительской деятельности и её результативностью. Исследование завершается практическими рекомендациями по совершенствованию духовно-просветительской работы в системе высшего образования.

Ключевые слова: духовность, просвещение, духовно-просветительская деятельность, высшее образование, глобализация, глокализация, национальные ценности, общечеловеческие ценности, идеологический иммунитет, социальная философия.

SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITIES OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Egamberdiyev Javlonbek Saynabi o'g'li

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Researcher.

Abstract.

This article examines the socio-philosophical foundations for improving spiritual and educational activities in higher education institutions. The author analyzes the impact of globalization on the education system, interpretations of spirituality and

enlightenment in Eastern and Western philosophical traditions, and the dialectical relationship between national and universal human values. The study considers the educational, integrative, protective, and creative-developmental functions of spiritual and educational activities. It argues that a modern higher education institution is no longer merely a place for professional education but has also become a space where various global ideological currents intersect. The author demonstrates that a one-sided assessment of globalization as an exclusively positive or negative phenomenon is scientifically unfounded and proposes an approach based on the principle of glocalization. Particular attention is paid to the relationship between the level of institutional preparedness for spiritual and educational activities and their effectiveness. The study concludes with practical recommendations for improving spiritual and educational work within the higher education system.

Keywords: spirituality, enlightenment, spiritual and educational activities, higher education, globalization, glocalization, national values, universal human values, ideological immunity, social philosophy.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining eng muhim tayanch nuqtalaridan biri yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish masalasidir. Bu masala hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmagan, ammo axborot almashinuvi to'xtovsiz kuchayib borayotgan hozirgi davrda u mutlaqo yangi mazmun kasb etmoqda. Oliy ta'lim muassasasi endi faqat mutaxassis tayyorlaydigan maskan emas. U jahon miqyosidagi turli g'oyaviy oqimlarning kesishuv nuqtasiga aylangan murakkab ijtimoiy institutdir. Talaba-yoshlar aynan shu muassasa devorlari ichida turli qadriyatlar tizimi bilan yuzma-yuz keladi, ularni qiyoslaydi va o'z shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq etish zarurati bir necha omil bilan izohlanadi. Birinchidan, globallashuv jarayonlari milliy ta'lim tizimlariga nisbatan yangi talablar qo'yimoqda, bu talablarning falsafiy asoslarini anglash zarur. Ikkinchidan, "ma'naviyat" va "ma'rifat" tushunchalarining o'zi tarixiy jarayonda turlicha mazmun kasb etib kelgan, shu bois ularning zamonaviy talqinini aniqlashtirish ilmiy ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning nazariy-metodologik asoslari hali yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi oliy ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini aniqlash, bu borada Sharq va G'arb falsafiy an'alarida shakllangan qarashlarni qiyosiy tahlil qilish hamda globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mexanizmlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot predmeti sifatida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat tushunchasining falsafiy mazmuni, uning ijtimoiy funksiyalari va globallashuv jarayoni bilan o'zaro aloqadorligi belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ma'naviyat tushunchasining falsafiy mohiyatini anglashda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimovning qarashlari muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Muallif ma'naviyatni "insonni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonini" [2] sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rif ma'naviyatni sof ruhiy hodisa sifatida emas, balki insonning butun dunyoqarashini belgilovchi mezon sifatida talqin qilishi bilan e'tiborga loyiqdir. Bunday yondashuv ma'naviyatni faqat ichki kechinma sifatida emas, balki shaxsning amaliy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi kuch sifatida ko'rish imkonini beradi.

Sharq falsafiy merosida ma'naviy-ma'rifiy masalalar chuqur nazariy asoslanganligi bilan tavsiflanadi. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida ta'lim va tarbiya tushunchalarini aniq farqlab ko'rsatadi. Mutafakkir fikricha, "ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir" [3]. Forobiyning ushbu farqlashi ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning ikki tarkibiy qismini, ya'ni bilim uzatish va amaliy ko'nikma shakllantirish jarayonlarini alohida-alohida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bizning nazarimizda, aynan mana shu farqlash zamonaviy oliy ta'lim tizimida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, chunki ko'pincha ta'lim jarayoni tarbiya vazifasini o'z ichiga olmagan holda amalga oshiriladi.

Globallashuv jarayonining ijtimoiy-falsafiy mazmunini ochib berishda amerikalik sotsiolog R. Robertsonning konsepsiyasi asos vazifasini o'taydi. Olim globallashuvni "dunyo miqyosidagi aloqalarning zichlashuvi hamda butun sayyora yaxlitligini anglash darajasining kuchayishi" [7] sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rif globallashuvning ikki tomonlama tabiatini, ya'ni uning obyektiv iqtisodiy-texnologik jarayon ekanligi bilan bir qatorda subyektiv-ongli idrok etish shakli ekanligini ham birlashtiradi. Shu sababli globallashuvni faqat tashqi, institutsional hodisa deb qarash yetarli emas, uning inson ongida kechadigan ichki o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqligini ham inobatga olish zarur.

Globallashuv mohiyatini falsafiy jihatdan asoslashda rossiyalik olim A. S. Panarinning yondashuvi diqqatga sazovordir. Uning fikricha, "globallashuv bir vaqtning o'zida ham obyektiv tarixiy jarayon, ham muayyan geosiyosiy kuchlar tomonidan boshqariladigan loyiha sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ikki xususiyatning birlashuvi globallashuvning ziddiyatli tabiatini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi" [8]. Panarinning ushbu tezisi globallashuvni biryoqlama baholashning ilmiy jihatdan asossiz ekanligini ko'rsatadi, chunki har qanday sof obyektiv yoxud sof subyektiv talqin jarayonning real murakkabligini to'liq aks ettira olmaydi.

Nemis sotsiologi U. Bek globallashuvning ijtimoiy oqibatlarini “xatarlar jamiyati” konsepsiyasi orqali tahlil qiladi. Olim ta’kidlashicha, “zamonaviy global xatarlar milliy chegaralardan tashqariga chiqib, barcha jamiyatlarni umumiy taqdirga duchor qiladi” [10]. Ushbu qarash globallashuv sharoitida an’anaviy milliy-davlat chegaralarida shakllangan ijtimoiy tafakkurni qayta ko’rib chiqish zaruratini asoslaydi. Bekning konsepsiyasi, bizning nazarimizda, oliy ta’lim tizimidagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni tahlil qilishda ham muhim metodologik ahamiyat kasb etadi, zero mafkuraviy tahdidlarning o’zi ham xuddi shunday chegara bilmas xususiyatga ega.

Amerikalik publitsist P. Byukenen G’arb sivilizatsiyasining madaniy inqirozi masalasini keskin tanqidiy ruhda yoritadi. Muallif fikricha, “azaliy urf-odatlarining yo’qolishi, qadriyatlarining toptalishi G’arb jamiyatining tanazzulga yuz tutishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi” [5]. Byukenen konsepsiyasining diqqatga sazovor jihati shundaki, u ma’naviy inqirozni sof ichki, psixologik masala sifatida emas, balki jamiyatning madaniy-tarixiy tizimi bilan bog’liq ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi. Ushbu yondashuv oliy ta’lim muassasalarining vazifasi yakka shaxs tarbiyasi bilan cheklanmasligini, balki butun jamiyatning madaniy-qadriyatlar tizimini saqlash vazifasini ham o’z ichiga olishini asoslashga xizmat qiladi.

Nemis-amerikalik faylasuf E. Fromm ma’naviyat masalasini insonning ijtimoiy mavjudligi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Uning fikricha, zamonaviy jamiyatda “inson ‘egallash’ va ‘bo’lish’ tarzlarini o’rtasida tanlov qilishga majbur bo’ladi, bunda ‘bo’lish’ tarzi aynan insonning ma’naviy-ruhiy boyligini anglatadi” [4]. Frommning ushbu dixotomiyasi iste’molchilik madaniyatining ma’naviyatga salbiy ta’sirini tushunish uchun nazariy vosita bo’lib xizmat qiladi. Bizningcha, ushbu konsepsiya globallashuv sharoitidagi iste’molchilik madaniyatining yoshlar ma’naviyatiga ko’rsatayotgan ta’sirini tahlil qilishda ham qo’llanilishi mumkin, chunki “egallash” mantig’i bugungi kunda ko’pincha ta’lim jarayoniga ham ko’chib o’tmoqda.

Tadqiqotchi F. Kodirov ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning maqsadga yo’nalganligini alohida ta’kidlaydi. Uning ta’rifiga ko’ra, mazkur faoliyat yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish va “ularning jamiyatga ijtimoiylashuvini samarali tashkil etish imkoniyatini beruvchi maqsadli jarayon hisoblanadi” [6]. Ushbu ta’rif ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning ijtimoiy-pedagogik xususiyatini aks ettiradi, biroq bizning nazarimizda, uning mohiyati faqat pedagogik ta’sir doirasida cheklanmaydi, balki jamiyatning umumiy qadriyatlar tizimini saqlovchi kengroq mexanizm sifatida ham namoyon bo’ladi.

Globallashuv jarayonining axborot omili bilan bog’liqligini tahlil qilar ekan, tadqiqotchi H. Rajabov “globallashuv jarayonining asosiy jihati — bu xalqlar, davlatlar, millatlar o’rtasida axborot olish va tarqatish jarayonidagi chegaraning amalda yo’qligi bilan xarakterlanadi” [9], degan xulosaga keladi. Ushbu qarash globallashuvning kuchayishi bevosita axborot omiliga bog’liqligini ko’rsatadi. Bizning nazarimizda, aynan shu jihat oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni tashkil etishda alohida e’tiborni talab qiladi, zero axborot maydonining chegarasizligi mafkuraviy tahdidlarning ham chegarasiz tarqalishini anglatadi.

Davlat siyosati darajasida ma’naviyat masalasiga bo’lgan yondashuvni tahlil qilar ekanmiz, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning qarashlariga to’xtalish o’rinlidir. Davlat rahbari “kuchli ma’naviyat” iborasini qo’llab, ma’naviyat tushunchasiga yangicha, dinamik mazmun bergan [1]. Mazkur ibora avvalgi “yuksak ma’naviyat” iborasidan farqli o’laroq, ma’naviyatning nafaqat mavjud holatini, balki uning doimiy rivojlanish xususiyatini ham qamrab oladi. Bizning nazarimizda, bu holat ma’naviyatni statik qadriyat sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan birga takomillashib boruvchi jarayon sifatida tushunish zaruratini ko’rsatadi, bu esa oliy ta’lim tizimidagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning ham doimiy yangilanib borishi lozimligini taqozo etadi.

Yuqorida ko’rib chiqilgan ilmiy yondashuvlarni umumlashtirar ekanmiz, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat tushunchasining ko’p qatlamli, murakkab falsafiy hodisa ekanligi ayon bo’ladi. Bir tomondan, u insonning ichki ruhiy-axloqiy asosini tashkil etuvchi ma’naviyat bilan bog’liq bo’lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatning institutsional tizimlari orqali amalga oshiriladigan maqsadli ijtimoiy amaliyot sifatida namoyon bo’ladi. Sharq falsafiy an’anasida ushbu masala ko’proq jamoa va millat manfaatlarini bilan uzviy bog’liqlikda, G’arb falsafasida esa ko’proq individual ozodlik va shaxsiy mavjudlik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Bizning nazarimizda, bu ikki an’ana bir-birini inkor etmaydi, aksincha, ular ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni turli qirralardan yoritib, uning to’laqonli falsafiy tushunilishiga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta’lim muassasalari ma’naviy-ma’rifiy faoliyatining zamonaviy holatini tahlil qilish jarayonida bir qator muhim qonuniyatlar aniqlanadi. Avvalo, shuni qayd etish lozimki, mazkur faoliyat endi yakka shaxs darajasidagi ichki jarayon bo’lmagan, jamiyatning institutsional tizimlari orqali amalga oshiriladigan maqsadli ijtimoiy amaliyotga aylangan. Bu holat oliy ta’lim muassasasining o’zi ham o’zgarganligini ko’rsatadi. Agar an’anaviy tushunchada universitet faqat kasbiy bilim beruvchi maskan sifatida qaralgan bo’lsa, hozirgi davrda u talabalarning shaxsiy dunyoqarashi shakllanadigan, turli g’oyaviy oqimlar kesishadigan murakkab ijtimoiy makonga aylangan.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning tarkibiy tuzilishini tahlil qilganda, uning ikki asosiy subyektdan iborat ekanligi ko’rinadi. Bular tarbiyalovchi subyekt, ya’ni oila, davlat institutlari, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari hamda tarbiyalanuvchi subyekt, ya’ni talaba-yoshlardir. Biroq bu ikki tomonni qat’iy ravishda faol va passiv subyektlarga ajratish metodologik jihatdan noto’g’ri yondashuv bo’lar edi. Bizning tahlilimizga ko’ra, zamonaviy oliy ta’lim amaliyotida yoshlarni ma’naviy targ’ibotning shunchaki qabul qiluvchisi emas, balki uning faol ishtirokchisiga aylantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Faqat rasmiy, majburiy tadbirlar ko’rinishida tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar ko’pincha kutilgan natijani bermaydi, chunki ularda talabaning shaxsiy manfaatdorligi va ichki motivatsiyasi hisobga olinmagan bo’ladi.

Globallashuv jarayonining oliy ta’lim tizimiga ta’sirini tahlil qilish natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, bu ta’sir bir tomonlama emas, balki ikki qutbli xususiyatga ega. Bir tomondan, xalqaro ilmiy aloqalarning kengayishi, zamonaviy

pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi, chet tillarini o'zlashtirish imkoniyatlarining ortishi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi ijobiy omillar hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, aynan shu ochiqlik orqali jamiyatga xos bo'lmagan qadriyatlar, hayot tarzi va dunyoqarash modellari ham kirib kelishi mumkin. Bizning nazarimizda, ushbu ikki tomonlamalik globallashuvning o'zini emas, balki unga nisbatan institutsional tayyorgarlik darajasini muhim omilga aylantiradi. Institutsional tayyorgarligi yuqori bo'lgan ta'lim muassasasi globallashuv jarayonlaridan foyda olishga qodir bo'ladi, bunday tayyorgarlikka ega bo'lmagan muassasada esa salbiy oqibatlarining yuzaga kelish ehtimoli ortadi.

Mafkuraviy tahdidlarning oliy ta'lim muhitiga kirib kelish mexanizmlarini tahlil qilar ekanmiz, ularning uch asosiy yo'nalish orqali amalga oshirishini kuzatish mumkin. Birinchi yo'nalish axborot maydoni orqali, ya'ni internet resurslari va ijtimoiy tarmoqlar vositasida namoyon bo'ladi. Ikkinchi yo'nalish ta'lim dasturlari mazmuni orqali kechadi, bunda xorijiy adabiyotlarning yetarli tanqidiy bahosiz o'quv jarayoniga tatbiq etilishi muammoli holat hisoblanadi. Uchinchi yo'nalish esa shaxslararo muloqot orqali, xorijlik mutaxassislar va talabalar bilan bo'ladigan aloqalar doirasida kechadi. Bizning tahlilimizga ko'ra, bu uch yo'nalish o'zaro bog'liq holda amal qiladi va ularning birortasini alohida ko'rib chiqish orqali mafkuraviy immunitetni mustahkamlash bo'yicha yaxlit strategiya ishlab chiqib bo'lmaydi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi munosabatni tahlil qilganda, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish metodologik jihatdan noto'g'ri yondashuv ekanligi ayon bo'ladi. Bizning nazarimizda, milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlarining maxsus, milliy shaklda namoyon bo'lishi sifatida qaralishi lozim. Masalan, mehmondo'stlik, kattalarni hurmat qilish kabi qadriyatlar o'zbek xalqida o'ziga xos milliy shaklda namoyon bo'lsa-da, ularning zamirida umuminsoniy axloqiy mazmun yotadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarining mutlaqlashtirilishi ham xavfli tendensiyaga aylanishi mumkin. Agar milliy qadriyatlar umuminsoniy taraqqiyot tamoyillaridan ajratilgan holda targ'ib qilinsa, bu holat madaniy biqizilikka olib kelishi mumkin. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida milliy g'urur bilan ochiqlik o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash muhim metodologik vazifa hisoblanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning ijtimoiy funksiyalarini tahlil qilish natijasida ularning tarbiyaviy, integratsiyaviy, himoya va ijodiy-rivojlantiruvchi yo'nalishlarda namoyon bo'lishini kuzatish mumkin. Ushbu funksiyalar bir-biridan alohida emas, balki o'zaro uzviy bog'liq holda amal qiladi. Himoya funksiyasini integratsiyaviy funksiyadan ajratib qarash mumkin emas, zero jamiyatning mafkuraviy immuniteti aynan uning qadriyatlar tizimi atrofida birlashganligi orqali shakllanadi. Bizning tahlilimizga ko'ra, aynan mana shu funksional bog'liqlik ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tizimli yondashuv asosida tashkil etish zarurligini asoslaydi, chunki funksiyalardan birortasini e'tibordan chetda qoldirish butun tizimning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Akademik mobillik jarayonining ma'naviy sohaga ta'sirini tahlil qilar ekanmiz, unda ham ikki tomonlama xususiyatni kuzatish mumkin. Xorijda tahsil olish talabalarda boshqa madaniyatlarni tushunish, plyuralizm kabi ijobiy kompetensiyalarni shakllantirishi mumkin. Biroq, shu bilan birga, xorijda uzoq muddat tahsil olish jarayonida shaxsning milliy-madaniy o'ziga xosligi bilan yangi muhit qadriyatlari o'rtasida ichki ziddiyat yuzaga kelishi ham ehtimoldan xoli emas. Bizning nazarimizda, bu holat oliy ta'lim muassasalari xorijga yuboriladigan talabalarni faqat kasbiy emas, balki ma'naviy-mafkuraviy jihatdan ham tayyorlashi zarurligini ko'rsatadi.

Umumlashtirib aytganda, o'tkazilgan tahlil ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning samaradorligi bir necha o'zaro bog'liq omilga bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu omillar qatoriga ta'lim muassasasining institutsional tayyorgarlik darajasi, faoliyat usullarining talabalar uchun jozibadorligi, mafkuraviy tahdidlarga qarshi tizimli yondashuvning mavjudligi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatning ta'minlanganligi kiradi. Bu omillarning har biri alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqilishi lozim, aks holda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni takomillashtirish borasidagi har qanday harakat parchalanib, kutilgan natijani bermay qolishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, oliy ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini takomillashtirish borasida quyidagi xulosa va takliflarni ilgari surish mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat murakkab, ko'p qatlamli ijtimoiy-falsafiy hodisa bo'lib, uni takomillashtirishda yagona, universal retsept mavjud emas. Har bir oliy ta'lim muassasasi o'zining tarixiy-madaniy konteksti, talabalar kontingentining o'ziga xosligi va institutsional imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga mos strategiyani ishlab chiqishi lozim. Shu bilan birga, barcha oliy ta'lim muassasalari uchun umumiy bo'lgan bir qator metodologik yo'nalishlarni belgilash mumkin.

Birinchiidan, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda talabalarni faoliyatning faol subyektiga aylantirish tamoyiliga alohida e'tibor qaratish lozim. Faqat rasmiy tadbirlar ko'rinishidagi ma'naviy tarbiya o'z samarasini bermaydi. Talabaning shaxsiy tashabbusiga, uning ijodiy salohiyatiga tayanuvchi usullar ustuvor bo'lishi kerak.

Ikkinchiidan, globallashuv jarayoniga nisbatan izolyatsionizm yoki taqlidchilik pozitsiyasidan voz kechib, globalizatsiya tamoyiliga asoslangan strategiyani shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunday strategiya global darajadagi ilmiy-ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish bilan bir qatorda, milliy-madaniy o'ziga xoslikni mustahkamlashga qaratilgan yo'nalishni ham o'zida mujassam etishi lozim.

Uchinchiidan, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ta'lim va tarbiya birligi tamoyilidan izchil foydalanish zarur. Bunda alohida e'tibor axborot maydoni, ta'lim dasturlari mazmuni va shaxslararo muloqot kanallariga qaratilishi, ushbu uch yo'nalish yaxlit tizim sifatida nazorat ostiga olinishi lozim.

To'rtinchiidan, akademik mobillik va xalqaro hamkorlik dasturlarini amalga oshirishda talabalarining nafaqat kasbiy, balki ma'naviy-mafkuraviy tayyorgarligiga ham teng darajada e'tibor qaratish zarur. Xorijga yuboriladigan talabalarda milliy qadriyatlarga asoslangan mustahkam ichki asosni shakllantirmasdan turib, akademik mobillikning ma'naviy xavflarini bartaraf etib bo'lmaydi.

Beshinchidan, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligini institutsional darajada baholash mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Bunday mexanizmlar mavjud bo'lmasa, amalga oshirilayotgan tadbirlarning real ta'sirini ilmiy asosda aniqlash imkonsiz bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyati globallashuv sharoitida jamiyat barqarorligini ta'minlovchi strategik ahamiyatga ega institutsional mexanizmga aylanmoqda. Ushbu faoliyatni takomillashtirish global integratsiya bilan milliy-madaniy o'ziga xoslikni saqlash o'rtasidagi dialektik muvozanatni topishga qaratilgan izchil, tizimli sa'y-harakatlarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir: "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish" masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqi. – 2021-yil 19-yanvar. – [Elektron resurs]. – URL: <https://president.uz/uz/lists/view/4089>
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b. – URL: <https://akbt.tkti.uz/uz/books/80>
3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri / tarj. A. Irisov, M. Mahmudov, U. Otajon; mas'ul muh. M. Xayrullayev, M. Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b. – URL: https://kitobxon.com/oz/kitob/fozil_odamlar_shahri-1
4. Фромм Э. Иметь или быть? / пер. с англ.; общ. ред. и послесл. В. И. Добренёва. – 2-е изд., доп. – Москва: Прогресс, 1990. – URL: <https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA11627269>
5. Бьюкенен П. Самоубийство сверхдержавы = Suicide of a Superpower: Will America Survive to 2025? / пер. К. М. Королева. – Москва: АСТ, 2016. – 640 с. – URL: <https://ast.ru/book/samoubiystvo-sverkhderzhavy-718717/>
6. Qodirov A. K. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022. – URL: https://api.moiti.uz/media/static_page/Qodirov_08_09_2022.pdf
7. Robertson R. Globalization: Social Theory and Global Culture. – London: Sage Publications, 1992. – URL: <https://search.worldcat.org/title/28634687>
8. Панарин А. С. Искушение глобализмом. – Москва: Русский Национальный Фонд, 2000. – URL: <https://www.moscowbooks.ru/bookinist/book/266185/>
9. Rajabov H. I. Davlatning axborot siyosati: xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti: siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – URL: <https://library.ziyonet.uz/book/131023>
10. Бек У. Общество риска. На пути к другому модерну / пер. с нем. В. Седелника, Н. Федоровой. – Москва: Прогресс-Традиция, 2000. – URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_000668274/